

PMI ISTE'MOLCHILAR UCHUN MAXFIYLIK BILDIRISHNOMASI

Biz iste'molchilarimizning maxfiyligiga (shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishga) jiddiy munosabatdamiz. Ushbu maxfiylik bildirishnomasi bizning kimligimiz, siz haqingizda qanday ma'lumotlarni yig'ishimiz va u bilan nima qilishimiz haqida ma'lumot beradi. Biz siz haqingizdagi ma'lumotlardan faqat amaldagi qonunchilikka muvofiq foydalanamiz.

Bu bizning umumiy amaliyotlarimizni tushuntirib beruvchi Iste'molchi Maxfiylik bildirishnomasining (keyingi o'rinlarda bildirishnoma deb yuritiladi) global versiyasidir. Agar mahalliy qonunlar yoki qoidalar bizdan ma'lumotni boshqacha tarzda qayta ishlashimizni yoki bunday qayta ishlashdan bosh tortishimizni talab qilsa, biz har doim amaldagi mahalliy qonunlarga rioya qilamiz. Mamlakat darajasidagi har qanday tafovutlar haqida ma'lumot olish uchun quyidagi "Muayyan mamlakatlar uchun qo'shimcha ma'lumotlar" bo'limiga qarang.

Ushbu bildirishnomada ko'rib chiqilmagan har qanday masalalar bo'yicha biz qo'shimcha bildirishnoma nashretishimiz mumkin. Ushbu bildirishnoma bilan birgalikda har qanday qo'shimcha xabarnomani o'qib chiqishingiz kerak. "Siz qanday huquq va imkoniyatlarga egasiz?" bo'limida shuningdek, siz o'z huquqlaringiz haqida ma'lumot olishingiz mumkin.

Biz kimmiz?

Biz Philip Morris International kompaniyalar guruhining affillangan kompaniyasimiz. Guruhning barcha affillangan kompaniyalari bu yerda, shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun mas'ul shaxsning aloqa ma'lumotlari (kerak bo'lganda) keltirilgan. Iltimos, shaxsiy ma'lumotlaringizni qayta ishlash bo'yicha biz bilan bog'lanmoqchi bo'lsangiz, ushbu aloqa ma'lumotlaridan foydalaning.

Bizning aloqa ma'lumotlarimiz (nom, manzil va boshqalar) biz siz haqingizda ma'lumot to'plash vaqtida (yoki tasdiqlash uchun), masalan, ilovadagi bildirishnomada, veb-saytda yoki ushbu xabarga havolasi bo'lgan elektron pochta orqali sizga alohida taqdim etiladi.

- Philip Morris International yoki PMI bosh qarorgohi Shveytsariyaning Lozanna shahrida joylashgan "Philip Morris Interneshnl" yetakchi xalqaro tamaki guruhini bildiradi. U bir qator kompaniyalar yoki "affillangan kompaniyalar" dan iborat.
- PMI affillangan shaxslari sifatida "Philip Morris Interneshnl" kompaniyalar guruhining har bir a'zosi tushiniladi. "Biz" (yoki "bizni" yoki "bizning") dastlab siz haqingizda ma'lumot yig'gan PMI affillangan shaxsini anglatadi.
- PMI mahsuloti PMI yoki uning affillangan shaxslaridan birining mahsulotini anglatadi.

Siz haqingizda ma'lumotlarni qanday yig'amiz?

Siz haqingizdagi ma'lumotlarni biz turli yo'llar bilan yig'ishimiz mumkin.

- Siz bizga ma'lumotni to'g'ridan-to'g'ri (masalan, shaklni to'ldirish, bizga qo'ng'iroq qilish yoki mobil ilova orqali ma'lumotlarni yuklash orqali) berishingiz mumkin.
- Agar siz ma'lumotni bizga yuborishga qaror qilsangiz, biz PMI elektron qurilmangizdan ma'lumot to'plashimiz mumkin.
- Tizimlarimiz bilan o'zaro aloqada bo'lganingizda yoki siz bilan muloqot qilganda (masalan, PMI ilovasi yoki veb-saytidan foydalanganingizda yoki elektron xatlar yoki SMS xabarlarni qabul qilish yoki

ochishni nazorat qilish uchun texnologiyadan foydalanganda) biz avtomatik ravishda ma'lumot yig'ishimiz mumkin.

- Shuningdek, biz uchinchi shaxslardan ma'lumotlarni yig'ishimiz mumkin (masalan, hamma uchun ochiq ma'lumotlar, Meta va X kabi ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar).
- Masalan, qonun tomonidan ruxsat etilgan taqdirda, biz uchinchi shaxslardan olgan jamlangan ma'lumotlarga asoslanib, siz haqingizda ma'lum xulosalarni chiqarishimiz mumkin. Masalan, bu ma'lum geografik hududlardagi odamlar haqidagi statistik ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Ushbu bildirishnomada biz “PMI bilan o'zaro aloqalar nuqtalari” deb biz bilan muloqot qilishning barcha usullariga tayanamiz. PMI bilan o'zaro aloqalar nuqtalari ham jismoniy munosabatlar nuqtalarini (masalan, chakana savdo nuqtalari (jumladan, ham PMIga tegishli va ham PMI tomonidan boshqariladigan chakana savdo nuqtalari va uchinchi tomon chakana savdo nuqtalari), tadbirlarni (jumladan, PMI tomonidan tashkil etilgan tadbirlar va PMI ishtirok etadigan uchinchi tomon tadbirlari), iste'molchilar uchun aloqa markazlari) va ham raqamli o'zaro aloqalar nuqtalarini (masalan, ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar va veb-saytlar) o'z ichiga oladi.

Siz to'g'ridan-to'g'ri taqdim etgan ma'lumotlarni yig'ishimiz mumkin. Bu odatda quyidagi hollarda sodir bo'ladi:

- yoshni tekshirishni o'z ichiga oladigan ma'lumotlar bazalarimiz (shu jumladan sodiqlik dasturlari) uchun ro'yxatdan o'tganingizda (bu shaxsan, ilova orqali yoki onlayn bo'lishi mumkin, jumladan, SI yordamida yuzingizni tahlil qilish);
- yoshni tekshirishni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan mahsulotlarimiz haqida ma'lumot so'raningizda (bu shaxsan, ilova orqali yoki onlayn bo'lishi mumkin, jumladan, SI yordamida yuzingizni tahlil qilish);
- chakana savdo do'konida PMI mahsulotlari yoki xizmatlarini sotib olganingizda;
- PMI raqamli o'zaro aloqalar nuqtalarini (masalan, ilovalar yoki veb-saytlar) yuklab olganingizda yoki foydalanganingizda;
- PMI o'zaro aloqalar nuqtasi orqali yoki elektron pochta orqali, ijtimoiy tarmoqlar yoki telefon orqali biz bilan bog'langaningizda;
- bizning ma'lumotlar bazamizda qurilmalarni ro'yxatdan o'tkazganingizda;
- PMI ning panel muhokamalar portaliga obuna bo'lganingizda;
- PMI press-revizlari, elektron pochta xabarlari, marketing xabarlari yoki boshqa reklama materiallarini olish uchun ro'yxatdan o'tganingizda;
- so'rovlarda yoki (qonun tomonidan ruxsat etilgan hollarda) tanlovlar yoki promo aksiyalarda ishtirok etganingizda;
- yoki bizning savdo vakillarimizdan biri bilan muloqot qilganingizda yoki PMI filiali tomonidan o'tkaziladigan tadbirda qatnashganingizda.

Agar siz ma'lumotni bizga yuborishga qaror qilsangiz, biz elektron qurilmangizdan ma'lumot to'plashimiz mumkin. Ushbu ma'lumot bizga onlayn yoki siz yuklab olishingiz mumkin bo'lgan ilovalarimizdan biri orqali uzatilishi mumkin.

Siz haqingizda ma'lumotni avtomatik ravishda yig'ishimiz mumkin. Bu odatda quyidagi hollarda sodir bo'ladi:

- PMI mahsulotlari sotiladigan do'konga tashrif buyurganingizda (masalan, xarid paytida ma'lumotlaringizni yig'ish yoki do'kondagi mobil texnologiyalar orqali ulangan turli datchiklar orqali);
- PMI afillangan kompaniyasi tomonidan o'tkaziladigan tadbirda ishtirok etganingizda (masalan, tadbir o'tkaziladigan joyda mobil texnologiyalar orqali ulangan joylashtirilgan turli datchiklar orqali);
- biz bilan bog'langaningizda (masalan, PMI o'zaro aloqalar nuqtalari, elektron pochta orqali yoki ijtimoiy tarmoqlar platformalari orqali);
- PMI bilan raqamli o'zaro aloqalar nuqtalaridan foydalanganingizda, masalan, kuzatuv mexanizmlari (masalan, cookie-fayllar, veb-mayoqlar/piksellar va qurilma identifikatorlari kabi boshqa kuzatuv texnologiyalari);
- uchinchi tomon veb-saytlaridan foydalanganingizda (masalan, oldingi bandda keltirilganlarga o'xshash texnologiyalardan foydalanganingizda);
- biz obuna bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar platformalarida ochiq xabarlarini joylashtirganingizda (masalan, jamoatchilik fikrini tushunishimiz uchun).
- ma'lumot boshqa PMI mahsulot iste'molchisi tomonidan bizga yuborilgan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, agar siz PMI raqamli aloqa nuqtalariga tashrif buyurganingizda cookie-fayllar va shunga o'xshash kuzatuv texnologiyalaridan foydalanishga rozi bo'lsangiz (yoki rad etmasangiz) ular yordamida siz haqingizda ma'lumotlarni avtomatik yig'ishimiz mumkin. Aniq qaysi cookie-fayllar va/yoki boshqa mexanizmlar ishlatilishi PMI o'zaro aloqalar nuqtasiga bog'liq. PMI o'zaro aloqalar nuqtasida ishlatiladigan ushbu mexanizmlar, shu jumladan cookie-fayllarni qanday qabul qilish yoki rad etish haqida bilib olish uchun ushbu PMI o'zaro aloqalar nuqtasida taqdim etilgan ma'lumotlarga qarang. Sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni qanday ishlov berishlarini bilish uchun ushbu ta'minlovchilarning maxfiylik bildirishnomasini o'qib chiqishingiz kerak. Ushbu mexanizmlar Google Analytics cookie-fayllarini o'z ichiga olishi mumkin (qarang: <https://policies.google.com/technologies/partner-sites>)

Biz ushbu cookie-fayllar va boshqa kuzatuv texnologiyalaridan turli hamkorlar orqali sizning manfaatlaringizga mos keladigan shaxsiylashtirilgan raqamli reklamani taqdim etish uchun foydalanamiz. Bunga sizga eng mos raqamli reklama e'lonlarini ko'rsatish uchun ixtiyorimizda bo'lgan elektron pochta manzillari va mobil telefon raqamlarini reklama bo'yicha hamkorlarimizning elektron pochta manzillari bilan taqqoslash kirishi mumkin (qonun tomonidan ruxsat etilgan hollarda). Buni faqat siz bizga rozilik bergan bo'lsangiz (yoki amaldagi qonunchilikka muvofiq ma'lumotlarni uzatishni rad qilmagan bo'lsangiz) amalga oshiramiz. Ba'zan biz o'xshash profillarni yaratish uchun siz haqingizdagi ma'lumotlarni qayta ishlashimiz mumkin. Bu bizga reklama platformasida boshqa odamlar haqidagi saqlanuvchi ma'lumotlari asosida, Google kabi reklama platformalari orqali potentsial mijozlar (siz uchun o'xshash qiziqishlar yoki demografik ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin) uchun o'xshash auditoriya yaratish imkonini beradi. Bu odatda elektron pochta manzilingizni reklama bo'yicha hamkorlarimizga uzatganligingizni anglatadi.

Agar qonun ruxsat bergan bo'lsa, biz siz haqingizda ma'lumotni uchinchi shaxslardan olishimiz mumkin. Bunga PMI afillangan shaxslari tomonidan uzatiladigan ma'lumotlar, uchinchi tomon

ijtimoiy tarmoqlari (masalan, Facebook va X kabi) saytlaridagi profil/akkaunt ochiq ma'lumotlari (masalan, siz nimani afzal ko'rishingiz va qiziqishlaringiz), uchinchi tomon agentliklaridan olingan marketing ro'yxatlari va qo'shimcha ma'lumotlar kiradi. Bunday ma'lumotlarga nisbatan, PMI ma'lum hollarda mustaqil nazoratchi sifatida yoki ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq holda uchinchi tomon bilan birgalikda nazoratchi sifatida harakat qilishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlardagi (masalan, Facebook, Google va boshqalar) akkaunt yordamida akkauntingizga kirganingizda, biz ijtimoiy tarmoq sayti ushbu plugin yoki havola orqali yig'iladigan ma'lumotlarni nazorat qila olmaymiz yoki ularga ta'sir eta olmaymiz.

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun ushbu uchinchi tomonlarning tegishli maxfiylik bildirishnomasini o'qing.

Biz boshqa holatlarda ham ma'lumot yig'ishimiz mumkin va bu sizga o'sha paytda ayon bo'ladi.

Siz haqingizda qanday ma'lumotlarni yig'amiz?

Biz siz haqingizda turli xil ma'lumotlarni yig'ishimiz mumkin, masalan:

- buyurtmalaringiz haqidagi ma'lumotlar, shu jumladan ularni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar;
- kafolat xizmatlarini ko'rsatish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar;
- siz bergan tavsiyalar haqida ma'lumot;
- shakllar yoki so'rovlar orqali bizga taqdim etgan ma'lumotlaringiz, shuningdek, bizga yetkazish uchun uchinchi shaxslarga taqdim etgan shunga o'xshash ma'lumotlaringiz;
- joylashuvingiz haqidagi ma'lumot, agar siz uni biz bilan baham ko'rishga rozi bo'lsangiz (masalan, mobil telefoningizda);
- bizning korxonamizga yoki tadbirlarimizga (yoki biz ishlayotgan boshqa shaxslarning korxonalari yoki tadbirlari) tashriflaringiz haqidagi ma'lumotlar;
- bizga xabarlarida (masalan, xatlar, qo'ng'iroqlar, chatlar, elektron pochta xabarlari, SMS va tezkor xabarlarida) taqdim etgan ma'lumotlaringiz;
- siz nimani afzal ko'rishingiz va qiziqishlaringiz haqidagi ma'lumotlar (jumladan, bizda mavjud bo'lgan boshqa ma'lumotlardan, masalan, statistik ma'lumotlardan qilgan xulosalarimiz);
- yoshingizni tekshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, masalan, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar yoki yuzingizni SI yordamida tahlil qilish;
- elektron qurilmangiz (masalan, IQOS) tomonidan yaratilgan ma'lumotlar, agar siz uni biz bilan baham ko'rishni tanlasangiz;
- mahsulot va xizmatlarimizdan foydalanish bo'yicha tajribangiz haqida ma'lumot;
- siz haqingizda statistik ma'lumotlar (masalan, ayrim geografik hududlardagi aholi soni haqidagi statistik ma'lumotlar);
- yomon hodisalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar (masalan, mahsulotlarimizdan birini ishlatishda sog'liq uchun istalmagan ta'sirlar), ular haqida bizga xabar berganingizda;
- siz haqingizda biz uchinchi shaxslardan oladigan ma'lumotlar, agar siz uchinchi tomon ma'lumotlaringizni boshqa shaxslarga uzatishiga rozi bo'lsangiz.

Biz sizdan to'g'ridan-to'g'ri oladigan ma'lumotlar siz uni taqdim etgan holatdan aniq bo'ladi.

- agar siz PMI o'zaro aloqalar nuqtasi orqali bizdan mahsulotga buyurtma bersangiz, buyurtmangizni bajarishimiz uchun ismingiz, aloqa ma'lumotlari, to'lov ma'lumotlari, to'lov usullari va siz tanlagan mahsulotlarni taqdim etasiz;
- biz sizga sizni qiziqtiradigan mahsulot va xizmatlarni taklif qilishimiz va mahsulot va xizmatlarimizni yaxshilashimiz uchun siz nimani afzal ko'rishingiz, qiziqishlaringiz va mahsulotlarga bo'lgan tajribangiz haqida ma'lumot berishingiz mumkin;
- agar siz qabulimizga (yoki mahsulot yoda xizmatlarimizni qo'llab-quvvatlovchi har qanday kishining qabuliga) yozilgan bo'lsangiz, biz sizning ismingiz va aloqa ma'lumotlaringizni yig'ishimiz mumkin;
- biz sizning yoshingizni tekshirishga imkon beruvchi ma'lumotlarni, masalan, shaxsingizni tasdiqlovchi hujjat nusxasi yoki yuzingiz tasvirini (foto yoki video) yig'ishimiz mumkin.
- agar siz bizning ilovalarimizdan birini yuklab olgan bo'lsangiz, biz ma'lum xususiyatlarni taqdim etish uchun joylashuvingizga kirishni so'rashimiz mumkin (ilova yopilgan yoki ishlatilmayotgan bo'lsa ham). Masalan, "Mening IQOSimni top" funksiyasi qurilmangizni yo'qotib qo'ysangiz, uni topishga yordam beradi va joylashuv ma'lumotlarini taqdim qilmasangiz u to'g'ri ishlamaydi. Biz joylashuv ma'lumotlarini saqlamaymiz. U faqat yuqorida aytib o'tilgan funksiyalarni amalga oshirish uchun ishlatiladi va faqat ilovada o'z roziligingizni berib, ushbu ma'lumotlarni uzatishga rozi bo'lsangiz;
- agar siz bizning aloqa markazlarimizdan biri bilan bog'lansangiz, so'rovlaringizni ishlov berishimiz uchun mahsulot va xizmatlarimiz bilan bog'liq tajribangiz kabi ma'lumotlarni bizga taqdim etishingiz mumkin.

Agar siz ma'lumotni bizga yuborishga rozi bo'lsangiz, biz elektron qurilmadan ma'lumot yig'ishimiz mumkin. PMI elektron qurilmasi uchun bu quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin: (i) qurilmaning o'zi haqida (ushlagichning seriya raqami, quvvatlagichning seriya raqami, proshivka versiyasi, qurilma xatolari); va (ii) qurilmadan foydalanish (ishlatilgan sarf materiallari soni (masalan, IQOS qurilmasi uchun), tozalashlar soni, batareyadan foydalanish, tortishlar soni, tipli foydalanish usuli (pattern) va qurilma xizmat muddati haqidagi ma'lumotlar (shu jumladan yuqoridagilarning har biri uchun umumiy qiymatlar va vaqt belgilari).

Biz avtomatik ravishda yig'adigan ma'lumotlar (odatda quyidagilarni o'z ichiga oladi):

- tashrifingiz yoki qo'ng'iroqingiz tafsilotlari (masalan, vaqt, sana va davomiylik);
- PMI aloqa nuqtalariga qo'ng'iroqlaringiz yoki tashriflaringizning audio yoki video yozuvlari (ruxsat berilgan bo'lsa), biz ularni matn formatiga aylantirishimiz mumkin;
- do'konga tashriflar yoki tadbirlarda ishtirok etish (shu jumladan yaqin joylashgan mintaqalar), qanchalik tez-tez tashrif buyurganingiz, qaysi mintaqalarga tashrif buyurganingiz va qancha vaqt va qanday xaridlar qilganingiz;
- PMI bilan raqamli o'zaro aloqa nuqtalaridan foydalanishingiz (masalan, siz tashrif buyurgan sahifalar; siz undan va unga o'tgan sahifa; siz kiritgan qidiruv shartlari; PMI o'zaro aloqa nuqtasi ichida bosgan havolalar; PMI o'zaro aloqa nuqtasidan birinchi marta foydalanish haqidagi ma'lumot; undan foydalanish davomiyligi; sizga yuborilgan xabarlar yoki sizga ko'rsatilgan reklama e'lonlari bilan o'zaro munosabatingiz);
- yig'ilgan ma'lumotlar yuqoridagi bandda tavsiflangan ma'lumotlarga o'xshash bo'lgan uchinchi

tomon veb-saytlaridan foydalanishingiz (buning uchun biz cookie-fayllar va shunga o'xshash kuzatuv texnologiyalaridan (masalan, piksellar/veb-mayoqlardan) foydalanishimiz mumkin);

- mobil yoki ish stoli usti qurilmangiz va dasturiy ta'minotningiz (masalan, IP-manzilingiz yoki noyob qurilma identifikatori (masalan, mobil reklama identifikatori (MAID) yoki Android identifikatori (SSAID)); joylashuv ma'lumotlari (yoki sizning umumiy joylashuvingiz (IP manzilingiz asosida, bu holda bizda mavjud bo'lgan ma'lumotlar umumiy bo'ladi, masalan, siz turgan shahar) yoki aniq joylashuvingiz (agar siz uni ma'lum maqsadlarda, masalan, do'kon topish uchun biz bilan baham ko'rishni tanlasangiz)), qurilma brendi va modeli, monitoringiz displey sozlamalari, veb-brauzer turi, operatsion tizim turi (ulardan ba'zilar "raqamli barmoq izi"da ishlatilishi mumkin (quyida siz haqingizda ma'lumotlarni qayta ishlash maqsadlarini ko'ring)) va biz qurilmangizda saqlashimiz mumkin bo'lgan cookie-fayllar (yoki shunga o'xshash texnologiyalar) tafsilotlari);
- agar siz bizga PMI elektron qurilmasini qaytarsangiz, qurilma nima uchun ishlamay qolganligini tekshirish uchun qurilmadan ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Agar siz qurilmangizni nosozligi sababli do'konlarimizdan biriga olib boradigan bo'lsangiz, u saqlaydigan ma'lumotlarni bizga taqdim etishga rozi bo'lsangizgina ma'lumotlarni chiqarib olamiz;
- qonun bilan ruxsat etilgan holda, siz haqingizda bizda mavjud bo'lgan ma'lumotlardan siz haqingizda ba'zi xulosalarni chqarishimiz mumkin. Masalan, mahsulot va xizmatlarimizni yaxshilash, takliflarimiz va xabarlarimizni sizga moslashtirish uchun segmentatsiya va profillashni amalga oshirish maqsadida biz bilan o'zaro munosabatlaringizni tahlil qilishimiz yoki siz nimani afzal ko'rishingizni aniqlash uchun uchinchi shaxslardan olgan ayrim geografik hududlardagi odamlar haqidagi jamlangan ma'lumotlardan foydalanishimiz mumkin.

Biz uchinchi shaxslardan yig'adigan ma'lumotlar odatda hamma uchun ochiq ma'lumotlardan (masalan, sizning afzalliklaringiz, qiziqishlaringiz va tajribalaringiz), masalan, hammaga ochiq ijtimoiy tarmoqlardagi nashrlardan iborat bo'ladi.

Siz haqingizdagi ma'lumotlardan qanday maqsadlarda va qanday qonuniy asosda foydalanamiz?

Ushbu bo'limda biz shaxsiy ma'lumotlardan qanday maqsadlarda foydalanishimizni tasvirlaymiz. Ushbu bildirishnoma xalqaro xususiyatga ega bo'lsa-da, agar ma'lum bir mamlakat qonunlari ushbu bildirishnomada tasvirlangan ayrim faoliyatlarni cheklasa yoki taqiqlasa, biz siz haqingizdagi ma'lumotlardan o'sha mamlakatda ushbu maqsadlarda foydalanmaymiz.

Yuqoridagilarga muvofiq biz siz haqingizdagi ma'lumotlardan quyidagi maqsadlarda foydalanamiz:

- Yoshingizni va mahsulotlarimiz foydalanuvchisi maqomingizni tekshirish kabi tartibga soluvchi majburiyatlarga rioya qilish yoki noxush hodisalar bilan bog'liq ma'lumotlarni xabar qilish uchun;
- Mahsulotlarimizni sizga ijaraga berish yoki sotish, shu jumladan buyurtmalaringizni bajarish va to'lovlaringizga ishlov berish;
- Sizga mahsulotlarni sotish va/yoki qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq xizmatlarni taqdim etish, shu jumladan, sizning savollaringiz va so'rovlaringizni ko'rib chiqish, shuningdek kafolat xizmatlari va qo'llab-quvvatlash, jumladan, shaxsiy yordam ko'rsatishni taqdim etish va mahsulotlarimizdan foydalanishni tushunish uchun;
- Mahsulotlarimiz va xizmatlarimizni sotish uchun (qonun bilan ruxsat etilgan hollarda); shu jumladan, sodiqlik va referal dasturlarni boshqarish, mahsulotlarni takomillashtirish, bozor

tadqiqotlarini o'tkazish (shu jumladan, bozor tadqiqoti hisobotida adolatli amaliyotlardan foydalanishni namoyish qilish); marketing strategiyalarini ishlab chiqish, shaxsiylashtirilgan takliflar va xabarlarini yaratish, marketing kampaniyalarini boshqarish, siz tashrif buyuradigan veb-saytlarda maqsadli raqamli reklama yaratish va amalga oshirish yoki potensial mijozlar (sizga o'xshash qiziqishlari yoki demografiyasi bo'lishi mumkin) uchun o'xshash auditoriyani yaratish; PMI mahsulotlari sotiladigan savdo nuqtalari kabi biz bilan o'zaro munosabatlaringiz va tajribangizni shaxsiylashtirish, yuboriladigan/ko'rsatiladigan xabarlar, reklama yoki marketing materiallari uchun triggerlarni o'rnatish uchun;

- Siz hali ham bizning marketing faoliyatimizda ishtirok etayotganligingizni va tegishli materiallarni olishni davom ettirmoqchi ekanligingizni tushunish uchun;
- Sizni marketing faoliyatida ishtirok etishning potensial imkoniyatlari PMI mahsulotlarini ilgari surish haqida xabardor qilish (bizdan yoki biznes hamkorlarimizdan); PMI o'zaro aloqa nuqtalari va PMI elektron qurilmalaridan foydalanish va tajribangizni yaxshilay olishingiz uchun;
- Yuqorida aytilganlarning barchasini qo'llab-quvvatlash, shu jumladan hisob qaydnomalaringizni boshqarish, siz bilan yozishma qilish, bizga yoki mahsulot yoki xizmatlarimizni qo'llab-quvvatlaydigan har bir kishiga tashrifingizni boshqarish (masalan, yangi mahsulot yoki sotuvdan keyingi xizmat xususida), PMI bilan o'zaro aloqa nuqtasi tajribasini shaxsiylashtirish, firibgarlikning oldini olish (masalan, bizning reklama aksiyalarimiz, tanlovlarimiz va so'rovlarimiz kontekstida, bir kishi ularni bir marta yoki ko'proq qabul qilmasligini ta'minlash uchun, yoki elektron tijorat kontekstida karta egasi va hisob ma'lumotlarini himoya qilish uchun), xodimlarni o'qitish va sifat nazorati, boshqaruv va muammolarni bartaraf etish uchun;
- Biznes-tahlil, statistik yoki ilmiy maqsadlarda, jumladan, PMI mahsulotlarini takomillashtirish uchun (PMI elektron qurilmalaridan yig'iladigan ma'lumotlar uchun, agar siz ushbu maqsadlar uchun bizga ma'lumot yuborishni tanlasangiz yoki qurilmani bizga qaytarsangiz) va xizmatlar, savdo nuqtalari va tadbirlar hamda biz (yoki bizning affillangan shaxslarimiz) sizga taqdim etadigan ma'lumotlar uchun;
- Biz sizni xabardor qiladigan yoki siz haqingizda dastlab ma'lumot yig'ishda kontekstdan aniq bo'ladigan boshqa maqsadlarda.

Siz haqingizdagi ma'lumotlardan foydalanishimizning huquqiy asosi quyidagilardan biri hisoblanadi:

- qonuniy majburiyatlarimizga rioya etish;
- siz taraf bo'lgan shartnomani bajarish;
- qonuniy ishbilarmonlik manfaati, agar u siz haqingizdagi ma'lumotlarni himoya qilishda sizning manfaatlaringizga zid bo'lmasa;
- agar yuqoridagilardan hech biri qo'llanilmasa yoki qonun talab qilgan hollarda shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga roziligingiz (biz ma'lumotni qayta ishlashdan oldin so'raymiz).

Siz haqingizdagi ma'lumotlardan foydalanish maqsadlarimiz (tegishli yig'ish usullari va foydalanishning huquqiy asoslari bilan birga) quyidagilardan iboratdir:

Maqsad	Yig'ish usuli va qayta ishlashning huquqiy asoslari
<i>Normativ majburiyatlarga rioya qilish:</i> - sizning yoshingiz va mahsulotlarimiz iste'molchisi sifatidagi maqomingizni tekshirish (mamlakatga va PMI bilan o'zaro aloqa qilish nuqtasiga qarab, bu qo'lda yoki avtomatlashtirilgan jarayon bo'lishi mumkin; ayrim mamlakatlarda siz o'zingizning yoshingizni avtomatik ravishda aniqlash uchun (lekin shaxsingizni tasdiqlamasdan) AI tomonidan ko'rib chiqiladigan yuz tasviringizni (fotosurat yoki video) yuklaysiz yoki bizga kirishni ta'minlaysiz); - mahsulotlarimiz bilan bog'liq noxush hodisalar haqida hisobot.	Ushbu ma'lumot odatda bizga bevosita siz tomonidan taqdim etiladi. Biz undan mahsulotimizni faqat kattalarga sotish va mahsulotlarimiz xavfsizligini nazorat qilish bo'yicha qonuniy majburiyatga rioya qilishimiz kerakligi sababli yoki bunday qonuniy majburiyat bo'lmagan mamlakatlarda mahsulotimizni faqat kattalarga sotishdan va siz haqingizdagi ma'lumotlarni himoya qilish uchun sizning manfaatlaringiz, huquq va erkinliklaringizdan ustun bo'lmagan mahsulotlarimiz xavfsizligini ta'minlashdan qonuniy biznes manfaatlarimiz borligi uchun foydalanamiz.
<i>Mahsulotlarimizni ijaraga berish yoki sotish:</i> - Buyurtmalarni bajarish (shu jumladan cheklar/kvitansiyalarni yuborish); - to'lovlaringizni qayta ishlash; - kafolat xizmatlarini va qo'llab-quvvatlash xizmatlarini taqdim etish.	Ushbu ma'lumot odatda bizga to'g'ridan-to'g'ri siz tomonidan taqdim etiladi (odatda ism, manzil, elektron pochta manzili, to'lov ma'lumotlari). Biz undan mahsulotimiz xaridori yoki ojargs oluvchisi sifatida sizning oldingizdagi shartnoma majburiyatlarimizni bajarish uchun foydalanamiz.
<i>Mahsulotlarni sotish va qo'llab-quvvatlash xizmatlarini taqdim etish:</i> - sizning so'rovlaringiz va arizalaringizni, shuningdek mahsulot va xizmatlarimiz bilan tajribangiz haqidagi ma'lumotlarga ishlov berish; - qurilmadan foydalanish uchun sizga shaxsiylashtirilgan yordamni taqdim etish; - siz bilan yozishmalar;	Ushbu ma'lumot odatda bizga bevosita siz tomonidan taqdim etiladi, lekin biz avtomatik ravishda to'playdigan ma'lumotlar bilan (masalan, PMI bilan o'zaro aloqa nuqtalari va bizdan kelgan elektron pochta xabarlaridan foydalanishingizni monitoring qilish uchun cookie-fayllar va veb-mayoqlar/piksellar kabi texnologiyalardan foydalanish) va uchinchi tomon aloqa nuqtalaridan foydalanishingizni monitoring qilish uchun shunga o'xshash texnologiyalardan foydalanish bilan

• <i>boshqaruv va nosozliklarni bartaraf etish;</i> • <i>sadoqat dasturlarini boshqarish.</i>	birlashtirilishi mumkin; va (qonun tomonidan ruxsat etilgan hollarda) biz uchinchi shaxslardan oladigan ma'lumotlar (masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi nashrlar). Biz undan foydalanamiz, chunki bunga sizning roziligingiz bor (bu holatlar kontekstdan aniq bo'ladi); yoki sizning manfaatlariniz, huquqlaringiz va erkinliklaringiz uchun siz haqingizdagi ma'lumotni himoya qilishdan ustun turmaydigan mijozlarimizga mahsulotlarni sotish va qo'llab-quvvatlash xizmatlarini ko'rsatishda qonuniy biznes manfaatimiz bor.
<i>Mahsulotlarimizni targ'ib qilish (qonun bilan ruxsat etilgan hollarda):</i> • siz nimani afzal ko'rishingizni tushunish (masalan, qaysi mahsulot yoki tadbirlar sizni qiziqtirishi yoki ehtiyojlaringizga ko'proq mos kelishi mumkin) va qonun tomonidan ruxsat etilgan hollarda to'g'ridan-to'g'ri marketing ma'lumotlarini taklif qilish; • siz hali ham bizning marketing faoliyatimizda ishtirok etayotganligingizni va ularda ishtirok etishni va/yoki ular haqida ma'lumot olishni davom ettirmoqchi ekanligingizni tushunish; • sadoqat va tavsiya dasturlarini boshqarish • sizni so'rovlar yoki marketing tadqiqotlarida ishtirok etish va ularni boshqarishga taklif qilish; • bozor tadqiqotlari va adolatli bozor tadqiqotlari amaliyotini namoyish etish uchun; • marketing strategiyalarini ishlab chiqish; • marketing kampaniyalarini boshqarish;	Bu odatda bizga taqdim etgan ma'lumotlaringiz (masalan, ismingiz, aloqa ma'lumotlari va ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar) va biz avtomatik ravishda to'playdigan ma'lumotlar (masalan, PMI bilan o'zaro aloqa nuqtalari va bizdan kelgan elektron pochta xabarlaridan foydalanishingizni monitoring qilish uchun cookie-fayllar va veb-mayoqlar/piksellar kabi texnologiyalardan foydalanish) birikmasidir; maqsadli pulli xabar tarqatmalarini amalga oshirish va siz bilan samarali o'zaroro munosabat qilish uchun uchinchi tomon o'zar aloqa nuqtalaridan foydalanishingizni monitoring qilish uchun shunga o'xshash texnologiyalardan foydalanish. Pulli marketing xabar tarqatmalari ijtimoiy tarmoqlar platformalari, qidiruv tizimlari va uchinchi tomon veb-saytlari kabi nashriyot platformalarida reklama fazosini sotib olishni; va (qonun tomonidan ruxsat etilgan hollarda) biz uchinchi shaxslardan oladigan ma'lumotlarni (masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi nashrlar) o'z ichiga oladi. Biz ularni quyidagi asos bilan ishlatamiz: • siz bunga roziligingizni berdingiz (bu holatlar ma'lum vaziyatdan aniq bo'ladi); • yoki bizda mahsulotimizni targ'ib qilish, PMI aloqa nuqtalarini boshqarish, mijozlar tajribangizni shaxsiylashtirish va siz

• PMI bilan tajribangizni shaxsiylashtirish; • sizga bizning reklama aksiyalarimiz, mahsulotlarimiz va xizmatlarimiz, korxonalar, tadbirlar va mahsulotlarimizni boshqarish haqida ma'lumot berish; • Marketing tajribangizni masalan biz sizga yuboradigan individual xabarlar va takliflar yoki sizga ko'rsatadigan reklamalar yordamida shaxsiylashtirish; • bizga yoki bizning biznes hamkorlarimizga PMI mahsulotlarini targ'ib qilishda ishtirok etishning potensial imkoniyatlari yoki sizga ma'lum mahsulotlarni taqdim etish qobiliyatimizga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan har qanday me'yoriy o'zgarishlar haqida sizga ma'lumot berishga ruxsat berish • Ushbu maqsadlarga erishish uchun vositalarni ishlab chiqish va takomillashtirish.	haqingizda ma'lumotni himoya qilish uchun sizning manfaatlaringiz, huquq va erkinliklaringizni bekor qilmaydigan marketing materiallarimizni olishni davom ettirishni xohlayotganingizni tushunishda qonuniy biznes manfaatdormiz.
<i>PMI bilan o'zaro aloqa nuqtalari va PMI elektron qurilmalaridan foydalanish:</i> PMI bilan o'zaro aloqa nuqtalari va PMI elektron qurilmalaridan foydalanish va foydalanish tajribangizni yaxshilash uchun.	Ushbu ma'lumot, agar siz uni bizga yuborishga qaror qilsangiz, to'g'ridan-to'g'ri Internetga ulangan qurilmangizdan yoki siz yuklab olishingiz mumkin bo'lgan ilovalarimizdan biri yoki turli sotuvchilar bilan o'zaro aloqa nuqtalari orqali yuboriladi. Bu quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin: (i) qurilmaning o'zi (masalan, ushlagichning seriya raqami, quvvatlagichning seriya raqami, o'rnatilgan DT versiyasi, qurilma xatolari); va (ii) qurilmadan foydalanish (masalan, HEET tamaki tayoqchalari soni (IQOS qurilmalari uchun), tozalashlar soni, batareyadan foydalanish, tortishlar soni va qurilmaning ishlash muddati ma'lumotlari (jumladan, yuqoridagilarning har biri uchun umumiy qiymatlar va vaqt belgilari)). Biz undan foydalanamiz, chunki bunga sizning roziligingiz bor (bu holatlar ma'lum kontekstdan aniq bo'ladi) yoki PMI bilan o'zaro aloqa nuqtalarida va siz

	haqingizdagi ma'lumotlarni himoya qilish uchun sizning manfaatlariniz, huquqlaringiz va erkinliklaringizga zid bo'lmagan PMI elektron qurilmalari uchun qo'llab-quvvatlashda qonuniy biznes manfaatimiz borligi uchun foydalanamiz.
<i>Bizning munosabatlarimizni qo'llab-quvvatlash:</i> • hisob qaydnomalarini boshqarish; • sizga PMI bilan o'zaro aloqa nuqtalaridan foydalanishga imkon beradi (masalan, faqat avtorizatsiyadan o'tgan foydalanuvchilar kirishi mumkin bo'lgan bo'limlarda qolishga imkon beradi, til sozlamalarini boshqarish, xaridlar savatini boshqarish, "Mening IQOSimni top" funksiyasi kabi PMI bilan o'zaro aloqa nuqtasining ayrim funksiyalarini faollashtirish (agar siz joylashuvingizni baham ko'rishga qaror qilsangiz); • siz bilan yozishmalar; • bizga yoki mahsulot yoki xizmatlarimizni qo'llab-quvvatlaydigan har bir kishiga tashrifingizni boshqarish (masalan, yangi mahsulot yoki sotuvdan keyingi xizmat xususida); • mijoz tajribangizni yaxshilash; • firibgarlikning oldini olish (masalan, reklama aksiyalari, tanlovlar va so'rovlar o'tkazilganda, hech kim bir martadan ortiq ishtirok etmasligini ta'minlash yoki elektron tijoratni amalga oshirishda karta egasi ma'lumotlarini va/yoki ularning hisoblarini himoya qilish uchun); • xodimlarni o'qitish va sifat nazorati (jumladan, yig'ilgan ma'lumotni olish uchun qo'ng'iroq aloqa rasshifrovkalaridan foydalanish), hamda nosozliklarni boshqarish va bartaraf	Bu odatda siz bizga taqdim etadigan ma'lumotlar (ism/familiya, parol (yoki ekvivalenti)) va biz avtomatik ravishda to'playdigan ma'lumotlar (masalan, qurilmangiz haqidagi ma'lumotlar, cookie-fayllar va shunga o'xshash kuzatuv texnologiyalari hamda (agar ruxsat berilgan bo'lsa) qo'ng'iroqlaringiz yozuvi (va ushbu yozuvlarning rasshifrovkalari) yoki PMI bilan o'zaro aloqa nuqtalariga tashriflar) haqidagi ma'lumotlarning birikmasi. Biz undan ma'lumotdan foydalanish maqsadlariga muvofiq foydalanamiz. Misol uchun, agar biz sizning hisob qaydnomangiz ma'lumotlarini sotishni amalga oshirish yoki sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatishni amalga oshirish uchun boshqarsak, biz ushbu ma'lumotlardan mahsulotimiz iste'molchisi sifatida sizning oldingizdagi shartnoma majburiyatlarimizni bajarish uchun foydalanamiz; agar biz sizning hisob qaydnomangizni mahsulotimizni sizga namoyish etish uchun boshqarsak, siz haqingizdagi ma'lumotlarni himoya qilish uchun sizning manfaatlariniz, huquq va erkinliklaringizga zid bo'lmagan mahsulotlarimizni ilgari surish bo'yicha qonuniy biznes manfaatlarimiz mavjudligi asosida marketing faoliyatini amalga oshiramiz.

etish.	
<i>Biznes-tahlil va takomillashtirish:</i> Biznes-tahlil, statistik yoki ilmiy maqsadlarda, shu jumladan, PMI mahsulotlarini yaxshilash uchun (elektron qurilmalardan to'plangan ma'lumotlar uchun, bu faqat ushbu maqsadlar uchun bizga ma'lumot berish yoki nosoz qurilmani qaytarishga qaror qilgan bo'lsangiz amal qiladi), xizmatlar, PMI mahsuloti sotuv nuqtalari, tadbirlar, PMI bilan raqamli o'zaro aloqa nuqtalari va biz (yoki bizning affillangan shaxslarimiz) mijozlarimizga taqdim etadigan ma'lumotlar.	Odatda, bu siz bizga taqdim etgan ma'lumotlarning (masalan, PMI bilan o'zaro aloqa nuqtalari bilan o'zaro aloqalaringizdan olingan ma'lumotlar; yoki yoshingiz, jinsingiz va siz yashayotgan shahar kabi demografik ma'lumotlar); va biz sizning elektron qurilmangizdan/to'g'risida to'playdigan ma'lumotlar (bu PMI elektron qurilmalari uchun elektron qurilmangiz va undan foydalanishingiz haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, lekin siz roziligingizni bergan bo'lsangiz yoki nosoz qurilmani qaytarib bergan bo'lsangiz); va biz avtomatik ravishda yig'adigan ma'lumotlar; va (qonun tomonidan ruxsat etilgan hollarda) biz uchinchi shaxslardan oladigan ma'lumotlar birikmasi bo'ladi. Agar bizda ushbu toifalardan bir nechta turdagi ma'lumotlar mavjud bo'lsa, tahlilimizni yaxshilash uchun ularni birlashtirishimiz mumkin. Biz undan foydalanamiz, chunki bunga sizning roziligingiz bor (bu holatlar ma'lum kontekstdan aniq bo'ladi); yoki biznes natijalarimiz, mahsulotlarimiz, PMI bilan o'zaro aloqa nuqtalari, kirish nuqtalari va tadbirlarni [va boshqa kishilarni PMI mahsulotlarini targ'ib qilishda ishtirok etishga taklif qilish] tahlil qilish va yaxshilashda qonuniy biznes manfaatimiz borligi sababli, agar bu siz haqingizdagi ma'lumotlarni himoya qilish uchun sizning manfaatlaringiz, huquqlaringiz va erkinliklaringizga zid bo'lmasa.

Agar biz siz haqingizdagi ma'lumotlardan yuqoridagi qonuniy asoslardan biriga ko'ra foydalanmasak yoki qonun talab qilsa, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashdan oldin sizdan roziligingizni so'raymiz (bu hollar vaziyatdan tushunarli bo'ladi).

Bunday holda, biz bunday foydalanishni tushuntiruvchi qo'shimcha maxfiylik bildirishnomasini taqdim etamiz. Ushbu bildirishnoma bilan birgalikda har qanday qo'shimcha xabarnomani o'qib chiqishingiz kerak.

Biz sun'iy intellekt (SI) va mashinali ta'limdan (MT) foydalanamizmi?

Iste'molchi tajribangizni yaxshilash uchun sun'iy intellekt (SI) xususiyatlaridan foydalanishimiz mumkin. Misol uchun, iste'molchilar uchun portalda tez-tez beriladigan savollarga javob beradigan va portalda harakatlanishingizga yordam beruvchi AI funksiyalari bilan qo'llab-quvvatlanadigan chatbot bo'lishi mumkin. Chatbot sizga mahsulotlarni topishga, hisob qaydnomangizni boshqarishga va qo'llab-quvvatlashga yordam bera oladi.

Bundan tashqari, biz xatti-harakatlaringiz va PMI bilan o'zaro aloqa nuqtalari bilan o'zaro aloqangizni tahlil qilish va qonun ruxsat etilgan hollarda segmentatsiya va profillashni amalga oshirish uchun mashinali ta'lim va statistik algoritmlar kabi SI funksiyalaridan foydalanishimiz mumkin. Bu bizga foydalanuvchi tajribangizni tushunish va yaxshilash, mahsulot va xizmatlarimizni yaxshilash hamda ularni sizning ehtiyojlaringizga moslashtirishga yordam beradi. Masalan, SI funksiyalaridan biri iste'molchilarning xatti-harakatlari namunalarini bilan taqqoslash asosida siz qaysi segmentga tegishli bo'lishingizni aniqlash uchun xaridlar tarixi, veb-sahifalarni ko'rish tarixi va demografik ma'lumotlar kabi turli kiruvchi ma'lumotlarni tahlil qiladi va bu bizning jamoalarimizga (inson aralashuvi) sizga eng mos keladigan tegishli va shaxsiylashtirilgan harakatlarni amalga oshirish uchun ushbu ma'lumotlardan foydalanishga imkon beradi.

Shuningdek, biz firibgarlik harakatlarining oldini olish uchun SI imkoniyatlaridan foydalanishimiz mumkin.

SI funksiyalaridan foydalanishning boshqa usullari PMI bilan o'zaro aloqa nuqtalaridan birida bizga murojaat qilganingizda qurilmangizga tegishli texnik diagnostika, jumladan, mikro dasturiy ta'minoti yangilanishlarini amalga oshirishda yordam berishi mumkin.

Va nihoyat, mijozlarga xizmat ko'rsatishni qo'llab-quvvatlash, uning samaradorligini oshirish (jumladan, ushbu xizmatlardan qoniqishingiz) va mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha o'zaro munosabatlarni sifatli ko'rib chiqish uchun siz bilan o'zaro aloqalarimizda SI funksiyalaridan foydalanishimiz mumkin. Bu bizga mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini baholashga, mijozlarga eng yaxshi qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga va yaxshilash uchun sohalarni aniqlashga yordam beradi. Misol uchun, ushbu o'zaro aloqalarni tahlil qilish orqali biz umumiy muammolar va tendentsiyalarni yaxshiroq tushunishimiz mumkin, natijada mijozlarga xizmat ko'rsatish va qoniqish yaxshilanadi.

Sizning ma'lumotlaringizni kimga va qanday maqsadlarda uzatamiz?

Biz sizning ma'lumotlaringizni quyidagilarga uzatishimiz mumkin:

- PMI affillangan shaxslariga;
- PMI affillangan shaxslariga yoki sizga mahsulot yoki xizmatlarni yetkazib beradigan uchinchi shaxslarga;
- PMI affillangan shaxslarining sinchkovlik bilan tanlangan biznes hamkorlari va reklama beruvchilariga (mahsulotlarimiz bilan bog'liq bo'lgan sohalarda), ular sizning xohishingizga ko'ra, sizni qiziqtirishi mumkin bo'lgan takliflar haqida siz bilan bog'lanishlari uchun;
- va qonunda talab qilingan yoki ruxsat etilgan hollarda boshqa uchinchi shaxslarga.

Biz siz haqingizdagi ma'lumotlarni faqat amaldagi qonunchilikka muvofiq boshqa shaxslarga uzatamiz. Shunday qilib, agar qonun sizning roziligingizni talab qilsa, dastlab sizdan bu borada so'raymiz.

PMI ning boshqa affillangan shaxslari bilan ma'lumot almashish

- Siz haqingizdagi ma'lumot PMI affillangan shaxslari tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha boshqaruv markazi bo'lgan Philip Morris Products S.A. (shtab-kvartirasi Lozanna, Shveytsariya) kompaniyasiga uzatiladi. Philip Morris Products S.A. siz haqingizdagi ma'lumotni mahsulot va xizmatlarimizni yaxshilash kabi ma'lumotlar kontrolleri sifatida ushbu bildirishnomada ta'riflangan maqsadlarda qayta ishlaydi.
- Siz haqingizdagi ma'lumot ushbu bildirishnomada ta'riflangan maqsadlar uchun siz yashayotgan mamlakatda tashkil etilgan PMI affillangan shaxsiga (agar bu ma'lumotni birinchi bo'lib yig'gan PMI affillangan shaxsi bo'lmasa) uzatiladi.
- Siz haqingizdagi ma'lumot sizga xizmatlarimizni yaxshilash uchun siz bog'langan PMI ning boshqa affillangan shaxslariga (masalan, agar siz sayohat qilsangiz va yangi mamlakatda PMI mahsulotlarini qayerdan sotib olish yoki PMI mahsulotlari uchun xizmat yoki qo'llab-quvvatlashni qayerdan topish mumkinligini bilmoqchi bo'lsangiz) uzatilishi mumkin.
- PMI affillangan shaxslari va ular ta'sis etilgan mamlakatlar haqida batafsil ma'lumot bu yerda mavjud.

Ma'lumotni uchinchi shaxslarga uzatish

Amaldagi qonunchilikda ruxsat etilgan hollarda biz siz haqingizdagi ma'lumotlarni PMI affillangan shaxslariga yoki sizga mahsulot yoki xizmatlarni taqdim etuvchi uchinchi shaxslarga uzatishimiz mumkin (masalan, to'lov yoki yetkazib berish xizmati ta'minlovchilari, chakana sotuvchilar, bozor tadqiqoti agentliklari, mahsulotdan foydalanish bo'yicha kouchlar, maslahatchilar, axborot xizmati ta'minlovchilari va yoshni tekshirish bo'yicha xizmatlar ta'minlovchilari).

Amaldagi qonunchilikda ruxsat etilgan darajada biz siz haqingizdagi ma'lumotni diqqat bilan tanlangan uchinchi tomon biznes hamkorlari va reklama beruvchilarga uzatishimiz mumkin (mahsulotlarimiz bilan bog'lash mumkin bo'lganlarga muvofiq, masalan, ular o'xshash yoki bir-birini to'ldiruvchi tasvir, uslub yoki funktsionallikka ega bo'lgani uchun), ular siz nimani afzal ko'rishingizga ko'ra siz uchun qiziqarli bo'lishi mumkin bo'lgan mahsulotlar, xizmatlar va aksiyalar uchun bog'lanishlari mumkin.

Biz sizning ma'lumotlaringizni qonun tomonidan talab qilingan yoki ruxsat etilgan hollarda, masalan, tartibga soluvchi organlar, davlat idoralari tomonidan, huquqni muhofaza qilish organlari yoki boshqa davlat xodimlarining so'rovlariga javoban, jismoniy zarar yoki moliyaviy yo'qotishlarning oldini olish uchun yoki shubhali yoki haqiqiy noqonuniy faoliyatni tekshirish bilan bog'liq holda yoki tashkilotni qayta qurish holatlarida oshkor qilish zarur yoki maqsadga muvofiq deb hisoblaganimizda, boshqa uchinchi shaxslarga uzatishimiz mumkin.

Siz haqingizdagi ma'lumot qayerga uzatilishi mumkin?

Har qanday xalqaro tashkilot singari, biz ham ma'lumotlarni butun dunyo bo'ylab affillangan kompaniyalarimiz va xizmat yetkazib beruvchilarimizga uzatamiz. Shunday qilib, sizning ma'lumotlaringiz standart operatsion faoliyatimizning bir qismi sifatida boshqa mamlakatlarga uzatilishi mumkin.

Ma'lumotlaringizni chet elga uzatganimizda, biz ma'lumotlaringizga kirish huquqini faqat ularni ko'rish uchun xizmat ehtiyoji b'lgan shaxslarga beramiz, ma'lumotlaringizni ichki ma'lumotlarni himoya qilish standartlarimizga muvofiq qayta ishlaymiz, ularni tegishli tarzda himoyalaymiz va faqat ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha amaldagi qonunlarga muvofiq uzatamiz. Ma'lumotlarni uzatganimizda, biz qabul qiluvchi tomondan ma'lumotlaringizni maxfiy saqlashini, kerak bo'lmaganda ularni o'chirib tashlashini va

ushbu maxfiylik bildirishnomasiga muvofiq amal qilishni talab qilamiz. Shunga ko'ra, siz haqingizdagi ma'lumotlar sizning yurisdiksiyangizdan tashqariga uzatilishi mumkin. Masalan, agar siz Yevropa iqtisodiy hududi ("YIH"), Birlashgan Qirollik, Shveytsariya, Avstraliya yoki Yaponiyada yashasangiz, ma'lumotlaringiz boshqa davlatda qayta ishlanishi mumkin.

Ushbu bildirishnomada ta'riflangandek ma'lumotlardan foydalanilganda, siz haqingizdagi ma'lumotlar to'plangan mamlakat yoki hudud ichida yoki undan tashqarida, shu jumladan, ma'lumotlarni himoya qilishning ekvivalent standartlariga ega bo'lmagan mamlakat yoki hududga uzatilishi mumkin.

Masalan, biz va YIH ichidagi PMI ning boshqa affillangan shaxslari shaxsiy ma'lumotlarni YIHdan tashqaridagi PMI affillangan shaxslari yoki ularning xizmat yetkazib beruvchilariga uzatishimiz mumkin. Barcha bunday hollarda uzatish quyidagicha amalga oshiriladi:

- Yevropa Komissiyasining ma'lumotlarni himoya qilish choralarining yetarligi to'g'risidagi qarori asosida;
- Yevropa Ittifoqining standart shartnoma shartlari yoki korporativ qoidalarning majburiyligi kabi tegishli xavfsizlik choralariga rioya qilish bilan;
- yoki sizning roziligingiz bilan yoki kerak bo'lganda siz va siz va biz o'rtasidagi shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish zarur bo'lgan taqdirda (yoki sizning so'rovingiz bo'yicha ko'rilgan shartnomadan oldingi chora-tadbirlarni amalga oshirish) yoki biz bilan uchinchi tomon o'rtasida sizning manfaatlaringiz uchun tuzilgan shartnomani tuzish yoki bajarish uchun, masalan, sayohatni tashkillashtirish.

Shveytsariyaning ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi Federal qonuniga, Birlashgan Qirollik GDPRga muvofiq va tegishli ravishda ma'lumotlarni himoya qilish va axborotni himoya qilish bo'yicha Federal komissar va Axborot bo'yicha komissar idorasining ko'rsatmalariga muvofiq Shveytsariya va Birlashgan Qirollikdan uzatish uchun.

Barcha holatlarda, ushbu mamlakatlar yoki hududlarda tegishli ma'lumotlarni himoya qilish qonunlariga muvofiq shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun tegishli xavfsizlik choralari ko'riladi.

Bizning xizmat yetkazib beruvchilarimiz dunyoning ko'plab mamlakatlarida, jumladan, YIH, Shveytsariya, AQSh, Kanada, Hindiston, Turkiya, Filippin, Indoneziya va Avstraliyada joylashgan.

Siz haqingizdagi ma'lumotlarni qanday himoya qilamiz?

Bizda saqlanuvchi shaxsiy ma'lumotlarni ruxsatsiz oshkor qilish, foydalanish, o'zgartirish yoki yo'q qilishdan himoya qilish uchun biz tegishli texnik va tashkiliy choralarni ko'ramiz. Tegishli hollarda, biz siz taqdim etgan ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashga yordam beradigan shifrlash va boshqa texnologiyalardan foydalanamiz. Biroq, Internet yoki elektron vositalar orqali ma'lumotlarni uzatishning hech qanday usuli 100% xavfsiz emas. Shuning uchun, biz sizning ma'lumotlaringizni himoya qilish uchun oqilona va maqbul vositalardan foydalanishga harakat qilsak ham, uning mutlaq xavfsizligi yoki maxfiyligini kafolatlay olmaymiz.

Agar biz sizga har qanday portal yoki hisob qaydnomasiga kirish imkonini beruvchi parol o'rnatgan bo'lsak (yoki siz o'zingiz o'rnatgan bo'lsangiz), ushbu parolni sirliligini (maxfiyligini) saqlash uchun siz javobgarsiz. Sizdan parol(lar)ingizni hech kimga xabar bermasligingizni so'raymiz. Shaxsiy ma'lumotlaringizdan suistemol qilish, yo'qotish yoki ruxsatsiz kirishdan shubhalansangiz, darhol bizga bu haqda xabar bering.

Ilтимos, birinchi navbatda biz bilan bog'lanish orqali (ushbu ma'lumotlardan foydalangan holda) o'z xavotirlaringizni bildiring va biz masalani o'rganib chiqamiz va keyingi harakatlar haqida sizni imkon qadar tezroq xabardor qilamiz.

Sizning ma'lumotlaringiz qancha vaqt saqlanadi?

Biz siz haqingizdagi ma'lumotlarni ichki ma'lumotlarni saqlash standartlarimizga muvofiq to'plangan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan vaqt davomida saqlaymiz. Bundan so'ng ma'lumotlarni o'chirib tashlaymiz. Bu muddat ma'lumot to'plangan maqsadlarga bog'liq. Shunga e'tibor beringki, ayrim hollarda siz ma'lumotni o'chirishni talab qilish huquqiga egasiz. Bundan tashqari, biz qonun bo'yicha ayrim ma'lumotlarni, masalan, soliqqa tortish va buxgalteriya hisobi maqsadlarida saqlashimiz shart.

Qoidaga ko'ra, biz quyidagi jadvalda ta'riflangan mezonlar asosida ma'lumotlarni saqlaymiz. Agar ushbu muddatlar ma'lumotni ma'lum minimal muddat davomida saqlash yoki belgilangan maksimal muddatdan keyin soliqqa tortish va buxgalteriya hisobi maqsadlarida o'chirish kabi qonuniy majburiyatlarga zid bo'lsa, biz ushbu belgilangan muddatlarni qo'llaymiz.

Turi	Tushuntirish / standart saqlash mezonlari
Marketing (shu jumladan marketing xabarlari) (agar siz raqamli o'zaro aloqa nuqtalaridan foydalansangiz va siz bilan bog'lanish mumkin bo'lsa)	Marketing profilingizdagi ma'lumotlarning katta qismi siz bilan bo'lgan marketing munosabatlarimiz davomida, masalan, siz PMI bilan raqamli o'zaro aloqa nuqtalaridan foydalanishni yoki xabarlarimizga javob berishni davom ettirguningizga qadar saqlanadi. Biroq, marketing profilingizning ayrim unsurlari, masalan, siz bilan qanday munosabatda bo'lganimiz haqidagi yozuvlar eskirgan va noto'g'ri bo'lib qolishi mumkin, shuning uchun biz ularni qanday maqsadda to'plaganimizga qarab, ma'lum muddatdan so'ng (odatda 3 yil) avtomatik ravishda o'chirib tashlaymiz.
Siz uchun marketing (shu jumladan marketing xabarlari) (agar siz boshqa biz bilan bog'lanmasangiz);	Agar biz siz bilan uzoq vaqt davomida (odatda 3 yil) bog'lanmasak, sizga marketing xabarlarini yuborishni to'xtatamiz va ma'lumotlar odatda o'chirib tashlanadi yoki shaxssizlantiriladi. Bu, masalan, agar siz tadbirga taklifnoma bo'yicha o'tmasangiz, PMI bilan raqamli o'zaro aloqa nuqtasiga kirmasangiz yoki ushbu 3 yillik muddat davomida mijozlarga xizmat ko'rsatish xizmatiga murojaat qilsangiz sodir bo'ladi.

	O'chirish/shaxssizlantirish sababi shundaki, bu sharoitda siz bizdan keyingi xabarlarni olmaslikni tanlagansiz deb taxmin qilamiz.
Marketing (shu jumladan marketing xabarlari) (agar siz bilan bog'lanib bo'lmasa)	Agar siz marketing xabarlarini olish uchun ro'yxatdan o'tgan bo'lsangiz, lekin aloqa ma'lumotlari endi dolzarb bo'lmasa, siz qaytib, ularni tuzata olishingiz uchun ma'lumotlaringizni ma'lum vaqt davomida (odatda 1 yil) saqlab qolamiz.
Marketing (shu jumladan marketing xabarlari) (noto'liq ro'yxatdan o'tish)	Agar siz ma'lumotlar bazasida ro'yxatdan o'tishni boshlasangiz, lekin jarayonni tugatmasangiz (masalan, yoshni tekshirish jarayonini tugatmasangiz yoki o'zaro aloqa nuqtasidan foydalanish shartlariga rozi bo'lmasangiz), yetishmayotgan ma'lumotlar turiga qarab, ma'lumotlaringizni (qaytib jarayonni tugatishingiz uchun) 30 kun davomida saqlaymiz.
Bozorlar tadqiqoti	Agar siz boshqa maqsadlarda (masalan, marketing kommunikatsiyalari, kafolatlar, mijozlarga xizmat ko'rsatish) bizda ro'yxatdan o'tmagan bo'lsangiz va biz siz haqingizdagi hammaga ochiq ma'lumotlardan bozorni yoki siz nimani afzal ko'rishingizni tushunish uchun foydalanmasak, siz haqingizdagi ma'lumotlarni ma'lum marketing faoliyatini amalga oshirish uchun qisqa vaqt davomida saqlab qolamiz. Boshqa marketing tadqiqotlari maqsadlarida siz haqingizda ma'lumot to'plaganimizda, biz quyidagi ma'lumotlarni saqlab qolamiz: • muayyan marketing tadqiqotlari maqsadlari uchun oqilona (odatda 1 yildan ortiq bo'lmasa) muddatga; • va adolatli amaliyotlarni namoyish qilish maqsadida, biz buni ko'rsata olishimizga qadar va shunga ko'ra, biz ma'lumotni bundan so'ng ham saqlashimiz kerakmi yoki yo'qligini aniqlash uchun ushbu maqsadga erishilganligini muntazam tekshirib turamiz.
Xaridlar, sodsadoqat va kafolat dasturlari	Agar siz mahsulot sotib olsangiz yoki sadoqat

bo'yicha faoliyatlar	dasturlarida ishtirok etsangiz, biz ushbu ma'lumotlarni sotishni yakunlash va har qanday qonuniy majburiyatlarni bajarish (masalan, soliq va buxgalteriya hisobi hamda firibgarlikning oldini olish maqsadida) uchun zarur bo'lgan vaqt davomida saqlaymiz. Agar siz sshuningdek qurilma kafolati uchun ro'yxatdan o'tsangiz, biz ushbu ma'lumotni kafolat muddati davomida saqlaymiz.
Mijozni qo'llab-quvvatlash	Agar siz mijozlarni qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilsangiz, biz murojaatlar tarixini (shu jumladan, so'rovingiz va javobimiz tafsilotlarini) olib boramiz va uni so'rov turiga tegishli muddat davomida saqlaymiz, masalan, agar siz kafolat ostidagi qurilmani almashtirishingiz kerak bo'lsa yoki so'nggi savollaringiz hali ham dolzarb bo'lsa. Vaqtinchalik yozuvlar (masalan, bizdan sizni chakana savdo do'koniga o'tkazishimizni so'ragan telefon qo'ng'irog'ini avtomatik yozib olish) faqat yanada doimiyroq yozuvlar (matnli rasshifrovkalar) qilinmaguncha kerak bo'ladi va shuning uchun faqat vaqtincha saqlanadi.
Tizim auditi va firibgarlikning oldini olish	Tizim audit jurnallari odatda tizimni tiklash maqsadida 6 oygacha va firibgarlikning oldini olish maqsadida 10 yilgacha saqlanadi.
Biznes-tahlil	Yuqoridagi jadvalning birinchi qatorida ta'riflanganidek, biz biznes-tahlil ma'lumotlarining ko'p qismini siz bilan marketing aloqamiz davomida saqlaymiz. Biroq, qurilma haqidagi ma'lumotlar (agar siz uni biz bilan baham ko'rishga qaror qilsangiz) kabi ushbu ma'lumotlarning bir qismi, tabiiy ravishda eskiradi, shuning uchun biz ma'lum muddatdan so'ng ularni yig'ish maqsadlariga ko'ra avtomatik ravishda o'chirib tashlaymiz.

Qurilmadagi/ haqidagi ma'lumotlar	Biz qurilmangizdan yig'ilgan ma'lumotlarni (agar siz uni biz bilan baham ko'rishga yoki nosoz qurilmani bizga qaytarishga qaror qilsangiz) foydalanish maqsadlariga ko'ra turli muddatlarda saqlaymiz: • mahsulotni yaxshilash: 5 yil (yoki siz marketing profilingizni o'chirib tashlasangiz, tezroq); • biznes-tahlil: 5 yil (yoki siz marketing profilingizni o'chirib tashlasangiz, tezroq); • qurilmani parvarish qilish, jumladan, qurilma diagnostikasi va yangilanishlari: 5 yil; • iste'molchiga adolatli munosabatni ko'rsatish: 10 yil.
Yoshni tekshirish	Yoshingizni tasdiqlash uchun bizga taqdim etgan ma'lumotlar tekshirish jarayoni tugagandan so'ng o'chirib tashlanadi. Buning uchun biz bir nechta jarayonlardan foydalanamiz va saqlash muddati tekshirish usuliga qarab bir necha daqiqadan olti oygacha o'zgaradi. Biz, shuningdek, firibgarlikning oldini olish uchun ayrim ma'lumotlarni alohida saqlaymiz — yuqoriga qarang. SI yordamida yoshni aniqlash (mahsulotlarimiz haqida ma'lumot so'raganingizda foydalanilishi mumkin) Tasviringiz tahlildan so'ng darhol o'chiriladi, bu bir necha soniya davom etadi.

Siz qanday huquq va imkoniyatlarga egasiz?

Siz haqingizda bizda mavjud bo'lgan ma'lumotlarga nisbatan quyidagi huquqlarning bir qismi yoki barchasiga ega bo'lishingiz mumkin:

- ma'lumotlarga kirishni taqdim etish uchun so'rov;
- ma'lumotlarni tuzatish, aniqlashtirish yoki yangilash uchun so'rov;
- muayyan holatlarda ma'lumotlardan foydalanishimizni cheklash uchun so'rov;
- muayyan holatlarda ushbu ma'lumotlardan foydalanishimizga e'tiroz bildirish;
- ushbu ma'lumotlardan foydalanishimizga roziligingizni qaytarib olish;

- muayyan sharoitlarda ma'lumotlarni ko'chirish;
- to'g'ridan-to'g'ri marketingdan voz kechish;
- va mamlakatingizdagi nazorat organiga (agar mavjud bo'lsa) shikoyat bilan murojaat qilish.

Biz sizga ushbu huquqlardan foydalanishning oddiy usullarini taklif qilamiz, masalan, "obunani bekor qilish" havolalari yoki siz olgan xabarlarda sizga aloqa manzilini ko'rsatish.

Biz taklif qilayotgan ayrim mobil ilovalar, masalan, yangi mahsulot yoki xizmatlar haqida sizga push-xabarlar yuborishi mumkin. Ushbu xabarlarni telefon yoki ilova sozlamalari orqali o'chirib qo'yish mumkin.

Sizning huquqlaringiz mamlakatingiz qonunlariga bog'liq. Agar siz YIH, Birlashgan Qirollik yoki Shveytsariya bo'lsangiz, quyidagi jadvalda ko'rsatilgan huquqlarga egasiz. Agar siz boshqa mamlakatda bo'lsangiz, o'z huquqlaringiz haqida bilish uchun biz bilan bog'lanishingiz mumkin (ushbu bildirishnomaning oxiridagi "Savollar bilan kimga murojaat qilish kerak?" bo'limiga qarang) yoki quyidagi mamlakatingiz uchun maxsus bo'limni o'qing.

Siz haqingizda biz saqlovchi ma'lumotlarga nisbatan huquq	Qo'shimcha ma'lumot (eslatma: ushbu huquqlarning barchasiga ma'lum qonuniy cheklovlar qo'llaniladi)
Malumotlarga kirishni taqdim etish uchun so'rov;	Bu quyidagilarni tasdiqlaydi: • Biz siz haqingizdagi ma'lumotlarni qayta ishlayotganimiz; • ismimiz va aloqa ma'lumotlarimiz; • qayta ishlash maqsadlari; • ma'lumotga muvofiq bo'lgan toifalar; • har qanday shaxs Birlashgan Qirollik/YIH/Shveytsariyadan tashqarida joylashgan va Yevropa Komissiyasining ma'lumotlarni himoya qilish choralarining yetarliligi qaroridan foydalanmasa, biz ma'lumot uzatadigan shaxslar toifalari va axborotni himoya qilish uchun tegishli himoya choralari; • (ma'lumot mavjud bo'lsa) biz sizdan ma'lumot olmagan holatda ma'lumot manbasi; • avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilishning mavjudligi haqida (biz buni amalga oshiradigan va sizga oshkor qilingan darajada), shu jumladan sizga nisbatan huquqiy ta'sir ko'rsatadigan yoki sizga shunga o'xshash darajada sezilarli darajada ta'sir qiladigan proffilashtirish, bu borada qaror qabul qilish uchun qo'llaniladigan mantiqiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlar va siz

	haqingizda saqlangan ma'lumotlardan bunday foydalanishning siz uchun ahamiyati va kutilayotgan oqibatlari; • va biz ma'lumotni saqlash muddatini aniqlash mezonlari. Sizning so'rovingizga muvofiq, biz sizga siz haqingizda foydalanadigan ma'lumotlarning nusxasini taqdim etamiz (bu boshqa shaxslarning huquq va erkinliklariga ta'sir qilmasa).
Malumotlarni tuzatish, aniqlashtirish yoki yangilash uchun so'rov	Agar siz haqingizda bizda mavjud bo'lgan ma'lumotlar noto'g'ri yoki to'liq bo'lmasa, amal qiladi.
Ma'lumotni o'chirish va ayrim hollarda bu huquqni kengaytirish uchun so'rov - unutish huquqi	Bu quyidagi hollarda amal qiladi: • bizda saqlangan ma'lumot undan foydalanish maqsadlarimiz sababli boshqa kerakli emas; • biz sizning roziligingiz asosida ma'lumotlardan foydalanamiz va siz bu rozilikni qaytarib olasiz (bu holda siz haqingizdagi barcha ma'lumotlarni o'chirib tashlashni istashingizni aytmaguningizcha siz bilan boshqa bog'lanmaymiz, bu holda biz sizning xohishingizni hurmat qilamiz); • Biz ma'lumotlardan qonuniy manfaatga asoslangan holda foydalanamiz va sizning e'tirozingizdan so'ng, biz undan foydalanishni davom ettirishga asosiy huquqimiz yo'q deb hisoblaymiz; • ma'lumotlar noqonuniy ravishda olingan yoki ishlatilgan; • yoki qonuniy majburiyatlarimizni bajarish uchun.
Ma'lumotlaringizni qayta ishlashni cheklash so'rovi	Bu huquq biz sizning ishingizni ko'rib chiqayotganimizda vaqtincha amal qiladi, agar siz: • biz foydalanayotgan ma'lumotlarning to'g'riligiga e'tiroz bildirsangiz; • qonuniy manfaatlar asosida ma'lumotlardan

	foydalanishimizga e'tiroz bildirsangiz (agar siz ushbu holatlarda o'z huquqingizdan foydalansangiz, biz ma'lumotni qayta ishlatishimizdan oldin sizni xabardor qilamiz). Bu huquq quyidagi hollarda ham qo'llanadi: • bizning ma'lumotlardan foydalanishimiz noqonuniydir va siz ma'lumotlarning o'chirilishiga e'tiroz bildirsangiz; • yoki bizga bu ma'lumotlar boshqa kerak bo'lmasa, lekin sizga qonuniy da'voni qo'llab-quvvatlash uchun kerak bo'lsa.
Ma'lumotlaringizni qayta ishlashga e'tiroz	Sizning ikkita huquqingiz bor: 1. Agar biz siz haqingizdagi ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri marketing uchun qayta ishlasak: siz "obunani bekor qilishingiz" mumkin (asos keltirmasdan) va biz sizning so'rovingizni bajaramiz; 2. Va agar biz siz haqingizdagi ma'lumotlardan qonuniy manfaatlar asosida boshqa maqsadlarda foydalansak, siz o'zingizning aniq vaziyatingizni tushuntirish orqali ushbu maqsadlarda foydalanishimizga e'tiroz bildirishingiz mumkin va biz sizning e'tirozingizni ko'rib chiqamiz.
Sizning ma'lumotlaringizdan foydalanishga rozilikni bekor qilish	Bu siz haqingizdagi ma'lumotlardan foydalanishimiz uchun qonuniy asos rozilik bo'lsa, amal qiladi. Bu holatlar aniq vaziyatdan tushiniladi (masalan, ilovalarimizdan biridagi sozlamalar markazidan foydalanib roziligingizni bergan bo'lsangiz, tegishli kalitni o'chirib, roziligingizni qaytarib olishingiz mumkin).
Muayyan avtomatlashtirilgan qarorlarga e'tiroz bildirish	Agar biz faqat avtomatlashtirilgan qayta ishlash asosida qaror qabul qilsak va bu qaror siz uchun huquqiy oqibatga olib kelsa yoki shunga o'xshash sizga jiddiy ta'sir qilsa, siz ushbu qarorga e'tiroz bildirishga, qarorni inson tomonidan ko'rib chiqilishini so'rashga va o'z fikringizni bildirishga

	haqlisiz. Ushbu huquq quyidagi hollarda qo'llanilmaydi: • avtomatlashtirilgan qarorga oldindan roziligingizni bergan bo'lsangiz; • siz haqingizda ma'lumotlardan foydalanish siz bilan biz o'rtamizda shartnoma tuzish yoki bajarish uchun zarur bo'lsa; • yoki qonun bilan ruxsat etilgan bo'lsa. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, biz sizning e'tiboringizni avtomatlashtirilgan qarorlar tegishli vaqtda qo'llanilayotganiga qaratamiz va qaror qabul qilinishi mantig'i, shuningdek, siz uchun ahamiyati va kutilayotgan oqibatlari haqida ma'lumot beramiz.
Ma'lumotlarni ko'chirish imkoniyati	Agar: • siz bizga ma'lumot bergan bo'lsangiz, • yoki biz ushbu ma'lumotlardan avtomatlashtirilgan vositalar yordamida va sizning roziligingiz asosida yoki sizning oldingizdagi shartnoma majburiyatlarimizni bekor qilish asosida foydalansak, • bu holda siz bizdan ma'lumotlarni keng ishlatiladigan formatda qaytarib olish huquqiga egasiz va agar bu biz uchun texnik jihatdan mumkin bo'lsa, bizdan ma'lumotlarni boshqa birovga uzatishimizni so'rash huquqiga egasiz.
Mamlakatingizdagi nazorat organiga shikoyat bilan murojaat qilish.	Agar biron bir shikoyatingiz bo'lsa, ularni to'g'ridan-to'g'ri hal qilish imkoniyatidan mamnun bo'lamiz. Nazorat qiluvchi organga murojaat qilishdan oldin, iltimos, ushbu bildirishnoma boshida joylashgan aloqa ma'lumotlari orqali biz bilan bog'laning. Agar siz nazorat qiluvchi organga murojaat qilmoqchi bo'lsangiz, quyidagi ma'lumotlarni olishingiz mumkin: • Yevropa Ittifoqi yoki Yevropa iqtisodiy hududi haqida ma'lumot olish uchun ushbu havola

	orqali Evropa veb-saytida ko'rsatilgan mahalliy hokimiyatga murojaat qilishingiz mumkin. • Birlashgan Qirollikda siz ushbu havola orqali Axborot bo'yicha komissar idorasiga murojaat qilishingiz mumkin. • Shveytsariyada siz ushbu havola orqali Ma'lumotlarni va axborotni himoya qilish bo'yicha federal komissar bilan bog'lanishingiz mumkin. • Boshqa mamlakatlar uchun, iltimos, mamlakatingizning rasmiy veb-saytiga murojaat qiling. Agar sizning yurisdiksiyangizda kim nazorat organi ekanligini bilmasangiz, ushbu sahifaning yuqori qismida keltirilgan aloqa ma'lumotlari orqali biz bilan bog'laning.
--	---

Muayyan mamlakatlar uchun qo'shimcha ma'lumotlar

Siz yashayotgan mamlakatga bog'liq ravishda siz qo'shimcha huquqlarga ega bo'lishingiz mumkin.

Agar siz Avstraliyada bo'lsangiz...

Quyidagi qo'shimcha ma'lumotlar sizga tegishli:

- Agar siz bizga shaxsiy ma'lumotlaringizni taqdim etmasangiz, biz (agar qo'llanilsa) siz so'ragan ma'lumot, mahsulot yoki xizmatlarni taqdim eta olmasligimiz mumkin.
- Maxfiylik siyosatimizda ([manzilida](#) mavjud) tushuntiriladi: (i) shaxsiy ma'lumotlaringizga qanday kirishingiz va tuzatishingiz mumkin; (ii) shaxsiy ma'lumotlaringizni qayta ishlashimizga qanday shikoyat qilishingiz mumkin; (iii) har qanday shikoyatlarni qanday ko'rib chiqamiz.

Agar siz Kolumbiyada bo'lsangiz...

Ma'lumotlar kontrolleri Coltabaco S.A.S. Kompaniyasi bo'lib, quyidagi manzilda joylashgan: Carrera 52 No. 4-96, Medellín, Colombia, telefon raqami: +57 4 356 90 00, elektron pochta manzili: proteccion.datos@pmi.com.

Biz "Filip Morris Interneshnl" kompaniyasining affillangan shaxsimiz.

Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq barcha faoliyat turlari uchun biz 2012 yildagi 1581-sonli Qonun, 2017-yildagi 1377-sonli qaror va ularga o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kirituvchi boshqa me'yoriy hujjatlar qoidalariga rioya qilamiz.

Zarur bo'lganda, biz har doim shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash, shu jumladan ma'lumotlarni har qanday xalqaro uzatish uchun oldindan roziligingizni olamiz, qonuniy istisno qo'llanillangan holatlardan tashqari.

Siz yuqorida ko'rsatilgan aloqa ma'lumotlari orqali biz bilan bog'lanish yoki ma'lumotlar ishlov beruvchisi bilan bog'lanish orqali shaxsiy ma'lumotlaringizga bepul kirish, yangilash va tuzatish huquqiga egasiz.

Ushbu huquq, jumladan, qisman keltirilgan, noto'g'ri, to'liq bo'lmagan, parchalangan, chalg'ituvchi ma'lumotlarga nisbatan yoki qayta ishlash taqiqlangan yoki ruxsat etilmagan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

Sizning ma'lumotlaringiz avtomatik ravishda qayta ishlanadi.

Sizga quyidagilar mumkin: (i) nozik ma'lumotlar yoki bolalar va o'smirlar haqidagi ma'lumotlar haqidagi savollarga ixtiyoriy ravishda javob berish; (ii) so'rov bo'yicha bizdan shaxsiy ma'lumotlaringizdan foydalanishimiz bo'yicha ma'lumot olish; (iii) bizga roziligingizni berganligingizni tasdiqlashimizni so'rash; (iv) ma'lumotlarning ma'lumotlar bazasida saqlanishini talab qiluvchi qonuniy cheklovlar yoki shartnoma majburiyatlari bo'lmasa, roziligingizni qaytarib olish; (v) agar qayta ishlash konstitutsiyaviy va huquqiy tamoyillarga, huquq va kafolatlarga muvofiq bo'lmasa, roziligingizni qaytarib olish va (yoki) ma'lumotlarni o'chirishni so'rash.

Biz sotadigan mahsulotlar turiga qarab, biz sizning chekuvchi maqomingiz haqida ma'lumot so'rashimiz mumkin.

Maxfiylik himoya qilish bo'yicha tashkilot shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq barcha so'rovlar, shikoyatlar va da'volar uchun javobgardir.

Maxfiylik himoya qilish bo'yicha tashkilotiga murojaat qilmoqchi bo'lsangiz, yuqorida aloqa ma'lumotlarini topishingiz mumkin.

Agar siz Fransiyada bo'lsangiz...

Vafot etishingiz taqdirida siz haqingizda biz saqlayotgan ma'lumotlarga oid ko'rsatmalar berish huquqiga egasiz (xususan, biz uni saqlashimiz kerakmi yoki o'chirishimiz kerakmi va boshqa shaxslar uni ko'rish huquqiga egami yoki yo'qmi).

Sizga quyidagilar mumkin:

- fransuz ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha nazorat organida ("CNIL" deb ataladi) ro'yxatdan o'tgan raqamli xizmat yetkazib beruvchiga umumiy ko'rsatmalar berish (ushbu ko'rsatmalar siz haqingizdagi ma'lumotlardan barcha foydalanish holatlari uchun amal qiladi);
- yoki faqat siz haqingizdagi ma'lumotlardan foydalanishimizga tegishli bo'lgan aniq ko'rsatmalar berish.

Sizning ko'rsatmalaringiz bizdan siz haqingizdagi ma'lumotlarni uchinchi tomonga uzatishimizni talab qilishi mumkin (lekin agar ma'lumot tashuvchisi boshqa odamlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olsa, ularning shaxsiy huquqlarini hurmat qilish uchun bizning majburiyatimiz sizning ko'rsatmalaringizga to'liq rioya qila olmasligimizni ham anglatishi mumkin).

Siz ko'rsatmalaringizni bajarish uchun mas'ul bo'lgan uchinchi shaxsni belgilashingiz mumkin.

Agar siz bunday uchinchi shaxsni tayinlamasangiz, sizning huquqiy vorislaringiz (agar ko'rsatmalaringizda boshqasi ko'rsatilmagan bo'lsa) vafotingizdan keyin siz haqingizdagi ma'lumotlarga nisbatan huquqlaringizni amalga oshirish huquqiga ega bo'ladi:

mulkingizni boshqarish uchun (bu holda sizning huquqiy vorislaringiz sizni shaxsingizni aniqlash va mulkingizni boshqarish uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni, shu jumladan oilaviy xotira deb hisoblanishi mumkin bo'lgan raqamli tovarlar yoki ma'lumotlarni olish uchun siz haqingizdagi ma'lumotlarga kirishlari mumkin bo'ladi);

Va siz haqingizdagi ma'lumotlardan foydalanayotgan tomonlar sizning o'limingizni hisobga olishini kafolatlash uchun (masalan, hisobingizni yopish va siz haqingizda ma'lumotlardan foydalanish yoki yangilashni cheklash).

Istalgan vaqtda ko'rsatmalaringizni o'zgartirishingiz yoki bekor qilishingiz mumkin.

Siz vafot etishingiz taqdirida siz haqingizdagi ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha qo'shimcha ma'lumot olish uchun 1978 yil 6 yanvardagi 78-17-sonli Qonunning o'zgartirish va qo'shimchalar bilan 84-86-moddalariga qarang.

O'limdan so'ng siz sukut bo'yicha hisob qaydnomangizdan foydalanishni to'xtatasiz va saqlash siyosatlarimizga muvofiq siz haqingizdagi ma'lumotlarni o'chirib tashlaymiz ("Siz haqingizdagi ma'lumotlar qancha vaqt saqlanadi?" bo'limiga qarang).

Agar siz Gruziyada bo'lsangiz...

Shunga e'tibor bering ki, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash Gruziyaning shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun talab qilsa, biz har doim ma'lum maqsadlarda shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga roziligingizni olamiz.

Siz istalgan vaqtda ma'lumotlarni qayta ishlashga roziligingizni erkin/bepul qaytarib olish huquqiga egasiz.

Sizning ma'lumotlaringiz biz tomonimizdan qayta ishlanayotgani, qanday ma'lumotlarga ishlov berilganligi, qanday maqsadda va qanday asoslarda qayta ishlanganligi haqida bizdan ma'lumot so'rash, bizdan ma'lumotlarni o'zgartirish yoki yangilash, ma'lumotlarni qayta ishlashni o'chirish va cheklash haqida so'rash huquqiga egasiz.

Qonunga zid bo'lmasa va nomutanosib urinishlarni talab qilmasa, bu so'rov biz tomonimizdan bepul bajariladi.

Agar siz Germaniyada bo'lsangiz...

Agar siz Germaniyada bo'lsangiz, biz siz haqingizdagi ma'lumotlarni quyidagiga uzatamiz: SCHUFA Holding AG, Kormoranweg 5, 65201 Wiesbaden., Tel.: +49 611 92780, yoshni tekshirish maqsadida.

Ular siz haqingizdagi ma'lumotlarni qanday qayta ishlashlari haqida batafsil ma'lumot olish uchun ularning maxfiylik bildirishnomasini shu yerda ko'ring.

Agar siz Isroilda bo'lsangiz...

Quyidagi qo'shimcha ma'lumotlar sizga tegishli:

Ma'lumotlar kontrolleri Ma'lumotlar operatori Filip Morris Ltd., Habarzel 30 St., Tel-Aviv, elektron pochta manzili:

Agar siz bizga shaxsiy ma'lumotlaringizni taqdim etmasangiz, biz (agar qo'llanilsa) siz so'ragan ma'lumot, mahsulot yoki xizmatlarni taqdim eta olmasligimiz mumkin;

Shaxsiy ma'lumotlaringizni qayta ishlashning qonuniy asosi sizning roziligingiz bo'lib, ushbu Maxfiylik bildirishnomasini ma'qullaganingizdan keyin berilgan deb hisoblanadi;

Siz quyidagi huquqlarga ega bo'lasiz: (i) shaxsiy ma'lumotlaringizga kirish huquqini berishimizni so'rash huquqi; (ii) amaldagi qonunchilikka muvofiq shaxsiy ma'lumotlaringiz noto'g'ri yoki yangilanganligi aniqlansa, bizdan uni tuzatish, yangilash yoki o'chirishni so'rash huquqi.

Agar siz Yaponiyada bo'lsangiz...

Agar siz Yaponiyada bo'lsangiz, shunga e'tibor beringki, biz siz haqingizdagi ma'lumotlarni ushbu bildirishnomada ta'riflangan maqsadlarda Yaponiyaning ma'lumotlarni himoya qilish qonunlariga muvofiq "birgalikda foydalanish" asosida PMI ning boshqa affillangan shaxslariga uzatamiz.

Biz shunday qilganda, Philip Morris Japan Limited (PMJ) kompaniyasi sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni mas'uliyat bilan boshqarishda davom etadi va biz ma'lumotlarni uzatadiganlardan ham shunday qilishlarini talab qilamiz.

Bundan tashqari, agar ular Yaponiyadan tashqarida bo'lsalar, biz tegishli qonun va me'yor hujjatlariga muvofiq oqilona choralar ko'ramiz.

Amaldagi qonunchilikda ruxsat etilgan darajada, biz siz haqingizdagi ma'lumotlarni PMI affillangan kompaniyalarining sinchkovlik bilan tanlangan uchinchi tomon biznes hamkorlari, jumladan, reklama beruvchilar va ma'lumotlar tahlili kompaniyalariga uzatishimiz mumkin (mahsulotlarimiz bilan bog'lash mumkin bo'lgan tarzda, masalan, ular o'xshash yoki bir-birini to'ldiruvchi tasvir, uslub yoki funktsionallikka ega bo'lgani uchun), ular siz nimani afzal ko'rishingizga ko'ra sizni qiziqtirishi mumkin deb o'ylaydigan mahsulotlar, xizmatlar va reklama aksiyalari haqida siz bilan bog'lanishlari uchun yoki siz nimani afzal ko'rishingizni tahlil qilishlari va ko'proq moslashtirilgan takliflarni olish uchun siz bilan bog'lanishimiz uchun.

Misol uchun, biz ushbu bildirishnomada bayon etilgan maqsadlarda siz haqingizda to'plangan ushbu bildirishnomada ta'riflangan ma'lumotlarni Yaponiyaning ma'lumotlarni himoya qilish qonunlariga muvofiq "birgalikda foydalanish" asosida IQOS do'konlari, IQOS onlayn do'koni va IQOS Telesotuvlar markazi operatori Dentsu Promotion Plus Inc. ("Dentsu")ga uzatamiz.

Biz shunday qilganda, Philip Morris Japan Limited (PMJ) kompaniyasi sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni mas'uliyat bilan boshqarishda davom etadi va biz Dentsu'dan ham shunday qilishini talab qilamiz.

Bundan tashqari, biz uchinchi shaxslardan ma'lum bir shaxsni to'g'ridan-to'g'ri identifikatsiya qilib bo'lmaydigan tegishli shaxsiy ma'lumotlarni olishimiz va ulardan faqat sizning roziligingiz bilan siz haqingizda mavjud bo'lgan ma'lumotlar bilan bog'lash uchun foydalanishimiz mumkin.

Yoshni tekshirish maqsadida "kattalar" atamasi ostida biz 20 yoshdan oshgan (tamaki mahsulotlarini sotib olishning qonuniy yoshi) shaxslarni nazarda tutamiz.

Agar siz Filippin bo'lsangiz...

Filippinning ma'lumotlar maxfiyligi to'g'risidagi qonuni va uning qoidalari va me'yoriy hujjatlariga, jumladan,

Maxfiylik masalalari bo'yicha Milliy Komissiyasining Maxfiylik masalalari bo'yicha boshqarmasining 2018-031-sonli maslahat xulosasiga muvofiq ushbu bildirishnomada ko'rsatilgan huquqlarga qo'shimcha ravishda huquqlarga ega bo'lishingiz mumkin.

Agar siz Shveytsariyada bo'lsangiz...

Agar siz Shveytsariyada bo'lsangiz, siz haqingizdagi ma'lumotlar Shveytsariyadan tashqariga, shu jumladan ma'lumotlarni himoya qilishning ekvivalent standartlariga ega bo'lmagan mamlakat yoki hududga uzatilishi mumkin.

Bunday hollarda, uzatish Ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi yangi qonunga va ma'lumotlarni va axborotni himoya qilish bo'yicha Federal komissar ko'rsatmalariga muvofiq, standart shartnoma bandlari kabi tegishli xavfsizlik choralariga rioya etish bilan amalga oshiriladi.

Agar siz Tayvanda bo'lsangiz...

Agar siz Tayvanda bo'lsangiz, quyidagi qo'shimcha ma'lumotlar sizga tegishli:

Agar siz bizga shaxsiy ma'lumotlaringizni taqdim etmasangiz, biz (agar qo'llanilsa) siz so'ragan ma'lumot, mahsulot yoki xizmatlarni taqdim eta olmasligimiz mumkin.

Agar siz AQShda bo'lsangiz...

Tegishli Maxfiylik bildirishnomasi ushbu manzilda mavjud.

Savollar bilan kimga murojaat qilishim kerak?

Agar sizda biron bir savol bo'lsa yoki o'z huquqlaringizdan foydalanishni istasangiz, PMI ning tegishli filiali va, agar mavjud bo'lsa, ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha mutaxassis bilan bog'lanish ma'lumotlarini ushbu bildirishnomaning yuqori qismida topishingiz mumkin. Aloqa ma'lumotlari PMI ning affillangan shaxsi sizga yuboradigan har qanday xabarlarida ham taqdim etiladi.

Agar mamlakatingizda ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha organ mavjud bo'lsa, siz har qanday savol yoki muammo bilan unga murojaat qilish huquqiga egasiz. Agar PMI ning tegishli affillangan shaxsi sizning savollaringiz yoki muammolaringizni hal qila olmasa, siz milliy sudga sud himoyasini so'rash huquqiga egasiz.

Ushbu bildirishnomagi o'zgarishlar kiritish

Biz vaqti-vaqti bilan ushbu bildirishnomani (va har qanday qo'shimcha maxfiylik bildirishnomasini) yangilash huquqiga egamiz. Qonun talab qilgan holatlarda, biz sizni o'zgarishlar haqida xabardor qilamiz; bundan tashqari, agar qonun talab qilsa, biz ushbu o'zgarishlarga sizning roziligingizni ham olamiz.

So'nggi o'zgartirish sanasi: 2025 yil 01 iyun